

Andijon viloyatida umumiy o'rta ta'lim


2024/2025 o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Andijon viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **820 tani** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **41 taga**, ya'ni **5,2 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025 o'quv yili boshiga viloyatda jami **38 ta** nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **5,4 barobarga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)


	Umumta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
Andijon viloyati	820	38
<i>shu jumladan:</i>		
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	78	20
Xonobod	8	
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	55	
Andijon	61	2
Baliqchi	64	2
Bo'ston	29	
Buloqboshi	35	
Jalaquduq	56	1
Izboskan	57	3
Ulug'nor	27	
Qo'rg'ontepa	63	
Asaka	70	1
Marhamat	48	3
Shahrixon	78	3
Paxtaobod	51	2
Xo'jaobod	40	1

2024/2025 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Andijon shahar (**78 ta**), Shahrixon (**78 ta**) va Asaka (**70 ta**) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa viloyatlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Xonobod shahar (**8 ta**), Ulug'nor (**27 ta**) va Bo'ston tumanlarida (**29 ta**) qayd etilgan.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko'p qismi Andijon shahri (**20 ta**), Izboskan (**3 ta**) va Marhamat (**3 ta**) tumanlarida, Xonobod sh, Bo'ston, Buloqboshi, Ulug'nor hamda Qo'rg'ontepa tumanlarida nodavlat umumta'lim tashkilotlari tashkil etilmagani qayd etildi.

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Andijon viloyatida 2020/2021 – 2024/2025 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **53,9 ming kishiga**, ya'ni **9,4 % ga** ko'paygan.



Ushbu davrda qiz bolalar soni **29,1 ming nafarga**, ya'ni **10,5 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **24,8 ming nafarga**, ya'ni **8,4 % ga** oshgan.

O'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi (2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)


	O'quvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Andijon viloyati	625,7	305,8	319,9	48,9	51,1
<i>shu jumladan:</i>					
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	91,2	42,7	48,5	46,8	53,2
Xonobod	7,5	3,7	3,8	49,2	50,8
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	38,8	19,2	19,6	49,4	50,6
Andijon	49,3	24,5	24,8	49,7	50,3
Baliqchi	39,6	19,5	20,1	49,2	50,8
Bo'ston	14,7	7,1	7,5	48,6	51,4
Buloqboshi	26,3	13,1	13,1	50,0	50,0
Jalaquduq	34,4	16,8	17,6	48,8	51,2
Izboskan	47,5	23,1	24,4	48,6	51,4
Ulug'nor	11,6	5,7	6,0	48,8	51,2
Qo'rg'ontepa	39,3	19,4	19,9	49,4	50,6
Asaka	64,8	32,1	32,7	49,6	50,4
Marhamat	33,2	16,4	16,7	49,6	50,4
Shahrixon	64,0	31,0	33,0	48,4	51,6
Paxtaobod	39,8	19,9	19,9	50,0	50,0
Xo'jaobod	23,9	11,7	12,2	48,8	51,2

Andijon viloyatining barcha hududlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **2,5 % ga** ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Andijon sh (**91,2 ming**), Asaka (**64,8 ming**) va Shahrixon (**64,0 ming**) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Xonobod sh (**7,5 ming**) va Ulug'nor (**11,6 ming**) tumaniga to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Andijon shahrida bo'lgan (o'g'il bolalar – **53,2 %**, qiz bolalar – **46,8 %**), boshqa hududlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2024 yilda Andijon viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **46,7 ming kishini** tashkil etgan va 2020 yilga nisbatan ularning soni **7,3 ming kishiga**, ya'ni **18,5 % ga** ko'paygan. XI sinf bitiruvchilari soni esa, aksincha, 2024 yilda 2020 yilga nisbatan **5,5 ming kishiga**, ya'ni **13,6 % ga** kamaygan va **34,9 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotgani anglatadi.


IX va XI sinf bitiruvchilari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
Andijon viloyati	46,7	34,9
<i>shu jumladan:</i>		
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	6,6	4,6
Xonobod	0,5	0,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	3,1	2,4
Andijon	3,9	2,8
Baliqchi	3,3	2,4
Bo'ston	1,0	0,8
Buloqboshi	1,9	1,5
Jalaquduq	2,5	2,0
Izboskan	3,9	2,7
Ulug'nor	0,9	0,6
Qo'rg'ontepa	3,0	2,1
Asaka	4,2	3,1
Marhamat	2,0	1,9
Shahrixon	5,1	3,9
Paxtaobod	3,1	2,2
Xo'jaobod	1,8	1,6

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Andijon sh (**6,6 ming**) va Shahrixon (**5,1 ming**) tumanlarida, eng kami esa Xonobod sh (**0,5 ming**) va Ulug'nor (**0,9 ming**) tumanida qayd etilgan. XI sinf bitiruvchilari orasida ham Andijon sh (**4,6 ming**) va Shahrixon (**3,9 ming**) tumani etakchilik qilmoqda, Xonobod sh (**0,3 ming**) va Ulug'nor (**0,6 ming**) tumanida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshiga Andijon viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **45,6 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **3,8 ming kishiga**, ya'ni **9,1 %** ga ko'paygan.



Andijon viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etgan – **77,2 % (35,2 ming kishi)**, erkaklar esa **22,8 % ni (10,4 ming kishi)** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Andijon viloyati	45,6	35,2	10,4	77,2	22,8
shu jumladan:					
shaharlar:					
Andijon	5,5	4,6	0,9	82,9	17,1
Xonobod	0,5	0,4	0,1	80,7	19,3
tumanlar:					
Oltinko'l	2,9	2,2	0,7	74,8	25,2
Andijon	3,3	2,4	0,9	73,6	26,4
Baliqchi	3,5	2,8	0,7	78,0	22,0
Bo'ston	1,2	0,8	0,4	69,9	30,1
Buloqboshi	2,1	1,7	0,4	81,1	18,9
Jalaquduq	2,8	2,2	0,6	78,7	21,3
Izboskan	3,5	2,7	0,8	76,2	23,8
Ulug'nor	1,0	0,8	0,2	75,0	25,0
Qo'rg'ontepa	2,9	2,3	0,6	78,2	21,8
Asaka	4,3	3,4	0,9	80,1	19,9
Marhamat	2,6	2,1	0,5	79,3	20,7
Shahrixon	4,3	3,0	1,3	69,7	30,3
Paxtaobod	3,2	2,4	0,8	75,6	24,4
Xo'jaobod	2,1	1,6	0,5	77,4	22,6

Eng yuqori ayol-o'qituvchilar ulushi Andijon shaharga to'g'ri kelgan (**82,9 %**), Shahrixon tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**69,7 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Andijon shaharga (**5,5 ming kishi**) va Shahrixon (**4,3 ming kishi**) tumanlarida qayd etilgan, boshqa viloyatlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Xonobod shahar (**0,5 ming kishi**) hamadi Ulug'nor (**1,0 ming kishi**) tumanlariga to'g'ri kelgan.

**V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar
va metama'lumotlar**

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1-umumta'lim shakli** "Umumta'lim muassasasining hisoboti" asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100170, Andijon sh.,
Milliy tiklanish ko'chasi, 36 a uy
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: 74-228-48-51 (74)

